



UDC: 94(575.121)''17/19'':339.1(091)

*Munavvar ATAMIRZAYEVA,*  
*Toshkent davlat texnika universiteti tayanch doktoranti*  
*E-mail: atamirzayeva.phd@gmail.com*

*O'zMU professori, t.f.d Z.Rahmonqulova taqrizi asosida*

#### **BUXORO AMIRLIGI DAVRIDA POYTAXT SHAHARNING SAVDO MUNOSABATLARI TARIXI**

Annotatsiya

Mazkur maqolada Buxoro amirligi davrida poytaxt Buxoro shahrining savdo munosabatlari, savdo infratuzilmasi va ichki hamda tashqi savdo tizimi tarixiy manbalar asosida tadqiq etiladi. Tadqiqotda shahar savdo hayotida bozorlarning o'rni, karvonsaroylar, timlar, toqlar, chorsu va savdo rastalarining faoliyati batafsil yoritilgan. Shuningdek, savdo jarayonining hunarmandchilik bilan uzviy bog'liqligi, savdo qonunlari, soliq tizimi hamda qul savdosining mavjudligi tahlil qilinadi. Maqolada Buxoro shahrining geografik joylashuvi va tranzit savdo yo'llaridagi strategik ahamiyati ochib berilib, uning Markaziy Osiyo, Rossiya, Eron, Afg'oniston va Hindiston bilan savdo aloqalari ko'rib chiqiladi. Tadqiqot natijalari Buxoro shahrining Buxoro amirligi davrida mintaqaviy va xalqaro savdoda muhim iqtisodiy markaz bo'lganini ko'rsatadi.

**Kalit so'zlar:** Buxoro amirligi, Buxoro shahri, savdo munosabatlari, ichki savdo, tashqi savdo, karvonsaroylar, timlar, chorus, Savdo rastalari, Tranzit Savdo, hunarmandchilik, zakot solig'i, qul savdosi.

#### **ИСТОРИЯ ТОРГОВЫХ ОТНОШЕНИЙ СТОЛИЦЫ В ПЕРИОД БУХАРСКОГО ЭМИРАТА МУНАВАР АТАМИРЗАЕВА**

Аннотация

В данной статье исследуются торговые отношения столицы Бухара, торговая инфраструктура, а также внутренняя и внешняя торговля в период Бухарского эмирата на основе исторических источников. В исследовании подробно рассматривается роль рынков в торговой жизни города, деятельность караван-сараяв, тимов, токов, чорсу и торговых лавок. Также анализируются связь торгового процесса с ремесленным производством, торговые законы, налоговая система и существование рабской торговли. В статье раскрывается стратегическое значение географического положения Бухары и её транзитных торговых путей, а также торговые связи с Центральной Азией, Россией, Ираном, Афганистаном и Индией. Результаты исследования показывают, что город Бухара был важным экономическим центром региональной и международной торговли в период Бухарского эмирата.

**Ключевые слова:** Бухарский эмират, город Бухара, торговые отношения, внутренняя торговля, внешняя торговля, караван-сарай, тимы, токи, чорсу, торговые лавки, транзитная торговля, ремесленничество, налог закят, рабская торговля.

#### **HISTORY OF TRADE RELATIONS OF THE CAPITAL CITY DURING THE BUKHARA EMIRATE MUNAVVAR ATAMIRZAYEVA**

Annotation

This article examines the trade relations of the capital city Bukhara, its trade infrastructure, as well as domestic and foreign trade during the period of the Bukhara Emirate, based on historical sources. The study provides a detailed analysis of the role of markets in the city's trade life, the activities of caravanserais, tims, toqs, chorsus, and trade stalls. The research also analyzes the close connection between trade and craftsmanship, trade laws, the taxation system, and the existence of slave trade. The article highlights the strategic importance of Bukhara's geographical location and transit trade routes, as well as its trade relations with Central Asia, Russia, Iran, Afghanistan, and India. The findings demonstrate that Bukhara was an important economic center in regional and international trade during the Bukhara Emirate.

**Key words:** Bukhara Emirate, Bukhara city, trade relations, domestic trade, foreign trade, caravanserais, tims, toqs, chorsu, trade stalls, transit trade, craftsmanship, zakat tax, slave trade.

**Kirish.** Buxoro shahri nafaqat amirlik ichida, balki Markaziy Osiyo shaharlari ichida muhim tijorat markazi hisoblanadi. O'zining ahamiyatli mavqeyini "ulug'", ya'ni "sharif" Buxoro nomi shu sababdan berilgan. Shahar qulay markaziy joylashuvda joylashgan, ya'ni u qo'shni davlatlar bilan munosabatda savdo yo'llari markazida joylashgan bo'lib, bu yo'llar orqali Osiyoning sharq va janubi shimol va g'arb bilan, shuningdek, Rossiya orqali Yevropa bilan bog'lanadi. Rossiya Osiyodagi savdo aylanmasini eng katta qismini shu yo'llar orqali amalga oshiradi [1]. Buxoro amirligi davrida poytaxt Buxoro shahrining savdo munosabatlari va infratuzilmasini o'rganishda tarixiy manbalar va tadqiqotlar katta ahamiyat kasb etadi. N. Xanikovning asarlarida (Xanikov, 1843) Buxorodagi karvonsaroylar va savdo yo'llarining ahvoli, bozorlarning tuzilishi va ular orqali

amalga oshirilgan savdo aylanmasi tahlil qilinadi. U karvonsaroylar soni, ularning tuzilishi va savdo hayotidagi o'rnini aniq ko'rsatib, shaharning ichki savdo tizimini tushuntiradi. P.P. Shubinskiy (1892) va Filip Yefremov (1950) manbalarida esa Buxoro shahridagi markaziy bozorlardagi karvonsaroylar, timlar va savdo rastalari faoliyati batafsil tasvirlangan. Shubinskiy shahar bo'ylab karvonsaroylar soni va ularning saqlash hamda savdo funksiyalarini yoritgan bo'lsa, Yefremov markaziy chorsu hududidagi savdo markazlarining joylashuvi va ularda amalga oshirilgan savdo turlarini ko'rsatadi. O.A. Sukhareva (1962) va G.A. Agzamova (2000) tadqiqotlarida Buxoro shahridagi ichki savdo va hunarmandchilikning uzviy bog'liqligi, savdo markazlarining ijtimoiy va iqtisodiy ahamiyati tahlil qilinadi. A.P. Vamberi (2003) va Y. Skayler (2019) sayohat

yozuvlarida esa Buxoro shahrining tashqi savdo aloqalari, xususan, Markaziy Osiyo, Rossiya, Eron, Afg'oniston va Hindiston bilan o'zaro iqtisodiy munosabatlari tafsilotlari keltirilgan. Shuningdek, tarixiy hujjatlar va ma'lumotnomalarda (Kostenko, 1871; Nebolsin, 1856; Konstantin Abaza, 2025) savdo-soliq tizimi, zakot soliqlari, savdo qonunlari va qul savdosi kabi jihatlar tahlil qilinadi, bu Buxoro shahrining ichki iqtisodiy hayoti va xalqaro savdo bilan uzviy bog'liqligini ko'rsatadi

**Tadqiqot metodologiyasi.** Ushbu maqolada Buxoro amirligi davrida Buxoro shahrining savdo munosabatlarini o'rganishda tarixiy-tahliliy va manbaga asoslangan metodologiya qo'llanilgan. Tadqiqot quyidagi asosiy usullar orqali amalga oshirilgan:

Tarixiy manbalarni tahlil qilish – Buxoro shahridagi savdo tizimi, karvonsaroylar, tim va toq binolari, chorsu va rastalar faoliyati, ichki va tashqi savdo aloqalari O.A. Sukhareva, G.A. Agzamova, N. Xanikov, P.P. Shubinskiy, Filip Yefremov, A.P. Vamberi va Y. Skayler kabi tarixiy manbalar va sayohat yozuvlari orqali o'rganilgan. Manbalar o'zaro solishtirilib, savdo aylanmasi va shahar infratuzilmasining o'ziga xosligi aniqlangan.

Arxiv va tarixiy hujjatlarni tadqiq etish – Savdo qonunlari, soliq tizimi, zakot va qul savdosi bilan bog'liq ma'lumotlar ko'rib chiqilgan. Shu bilan birga, XIX asr va oldingi davrlar yarmarkalari, bozor kunlari va tranzit yo'llar orqali savdo munosabatlarining tartibi tahlil qilingan.

Taqsimot va statistik ma'lumotlarni o'rganish – Bozorlar, karvonsaroylar, timlar, chorsu va rastalar soni hamda ularning turli tovarlarga ixtisoslashganligi, do'konlarning zichligi va savdo faoliyatining xarakteri asosida solishtirma tahlil qilingan.

Geografik-transport tahlil usuli – Shahar geografik joylashuvi va tranzit yo'llarining savdo jarayoniga ta'siri o'rganilgan. Bu usul orqali Buxoro shahrining Markaziy Osiyo, Rossiya, Eron, Afg'oniston va Hindiston bilan savdo aloqalaridagi strategik ahamiyati aniqlangan.

Komparativ va kontekstual tahlil – Buxoro shahridagi savdo infratuzilmasi va amirlik ichidagi savdo tizimi boshqa O'rta Osiyo shaharlari, xususan Samarqand va Qarshi bilan solishtirilgan. Ushbu metodologiya yordamida Buxoro shahrining ichki va tashqi savdo tizimi, bozor infratuzilmasi, savdo qonunlari, soliq tizimi, karvonsaroy va timlar faoliyati hamda tranzit savdo yo'llaridagi roli tizimli va ilmiy asosda yoritilgan. Natijada, tadqiqot Buxoro shahrining Buxoro amirligi davrida mintaqaviy va xalqaro savdoda muhim iqtisodiy markaz bo'lganligini tasdiqlaydi.

**Tahlil va natijalar.** Buxoro amirligida bu davrda savdo-sanoat albatta, qishloq xo'jaligidan so'ng ikkinchi o'rinni egallagan, chunki u butunlay dehqonchilikka bog'liq bo'lgan. Savdo-sotiq ikki turli bo'lib: ichki va tashqi. Amirlikning ham asosiy savdo markazlari – Buxoro, Samarqand va Qarshi shaharlaridir. Aynan shu shaharlarda tavar narxlari, pul kursi va boshqa iqtisodiy ko'rsatgichlar belgilanadi. Bu shaharlardagi do'konlarning ko'pligi kishini hayratga soladi [2]. Albatta, savdo munosabatlari hunarmandchilik turlari bilan uzviy bog'liq bo'lgan bo'lib, hunarmandlar tomonidan tayyorlangan mahsulotlarning bozori chaqqon bo'lgan. Bunday mahsulotlarni sotishga ixtisoslangan shaxslar bo'lib, ko'p hollarda bunday shaxslar nomiga u sotadigan mahsulot turiga "furush" so'zini qo'shib ishlatganlar [3]. Buxoro shahrining tuzulishida bozorlar eng muhim o'rinni egallagan. Buxoro bozorlari o'zining ulkanligi bilan ajralib turgan. Buxoro bozorlari savdo rastalari, maxsus savdo binolari – tim va toq deb ataluvchi maydonlarda va ma'lum turdagi tovarlar bilan savdo qilinar edi [4]. Ularning ichki hovlilari mavjud bo'lib, pastki qavatlar do'konlar va omborlar uchun, yuqori qavatlar esa kelgan savdogarlar uchun ijaraga berilgan [5]. Buxoroda karvonsaroylar savdo hayotida muhim

o'rin tutgan. Karvonsaroylarda ba'zan maxsus savdo rastalari joylashib, ularda chakana savdo amalga oshirilgan, ammo ko'proq bu yerda yirik savdo bitimlari tuzulgan. Savdogarlar o'zlariga tegishli yoki ijaraga olingan karvonsaroy xonalarini o'z idoralariga aylantirganlar [6]. Shuningdek, shahar atrofida tahminan 30 ta kichik karvonsaroylar mavjud bo'lib, ularning bir qismi tavar saqlash ombori sifatida, bir qismi kelgan mehmonlar uchun yashash joyi sifatida ishlatilgan [7]. Xanikov esa Buxorodagi karvonsaroylarning 38 ta bo'lganligini ta'kidlagan. 24 tasi toshdan, 14 tasi yog'ochdan qilingan [8]. Filip Yefremov ham Buxorodagi markaziy bozor (chorsu) dagi karvonsaroylar haqida ma'lumot beradi. Uning ma'lumotiga qaraganda, bu yerda to'rtta karvonsaroy bo'lgan, ularning barchasi toshdan qurilgan [9]. P. P. Shubinskiy esa Buxoro shahrida taxminan 150 ta karvonsaroy bo'lganligi haqida yozadi [10]. O'rta Osiyo shaharlari rejasining o'ziga xos xususiyati shundan iborat ediki, savdo markazlari asosiy ko'chalar kesishgan joylarga qurilar, bu yerga gumbazli savdo binolari – savdo markazi bo'lgan toqlar barpo etilar edi. Bunday toqlar Samarqand va Shahrisabzda ham savdo markazlarini belgilab bergan. Buxoroda bunday toqlardan beshta bo'lgan, bu esa Buxoro savdosining keng ko'lamliligi bo'lganligini va bozorlarning qay darajada rivojlanganligini ko'rsatadi. Samarqand va Shahrisabzda bunday binolarni "choru" (kesishuv, chorraha) deb atashgan. Buxoroda esa arabcha "toq" ya'ni "arka, gumbaz" atamasi qo'llanilgan. Buxoroning uch asosiy savdo markazi – Toqi Zargaron, Toqi Telpakfurushon va Toqi Saffaron – bir-birlariga ko'cha orqali bog'langan. Bundan tashqari ikki kichikroq gumbazga ega bo'lgan savdo markazlari – Toqi Tirgaron va Toqi Allofi ham mavjud bo'lgan. Shahar markazlari orasida eng janubiy joylashgan markaz – Toqi Sarrafon bo'lib, bu joyga bu davrda eng muhim ko'chalar kelib qo'shilgan: bir ko'cha sharqdan, Qarshi darvozasidan, ikkinchisi g'arbdan, Qorako'l darvozasidan kelgan. Aynan shu kesishuv Buxoroda "chorsu" nomi bilan atalgan. Bu shaharning asosiy savdo markazi bo'lgan. Toqi Tirgaron Registon yaqinida, arkaning janubiy devori yonida joylashgan. Toqi Allofi esa Registonning shimoliy-g'arbiy chekkasida (bu yerda un bozori mavjud bo'lgan) bo'lgan. Uchta asosiy savdo markazlari XVI asrda, Abdullaxon davrida qurilgan. Ular bugungi kungacha saqlanib qolgan va yaxshi restavratsiya qilingan. Buxoro amirlari ham savdo markazlarining yaxshi holatda saqlanishiga o'z e'tiborlarini qaratganlar. Buxoroning mashhur me'mori Usto Madjid Salohovning habariga ko'ra, amir Abdulahadon hukmronligi yillarida u Toqi Saffaron savdo markazining katta zarar ko'rgan qismlarini restavratsiya qilgan [11]. Dastlabki davrlarda har bir savdo markazining nomi, uning vazifasini bildirgan. Masalan, Toqi Zargaron savdo markazida XIX asrga kelib zargarlar yo'q bo'lgan. Savdo markazining shimoliy-g'arbiy qismi gilam savdogarlari tomonidan omborlar sifatida ishlatilgan. Toqi Telpak Buxorodagi eng katta savdo markazi edi. Toqi Tirgaron markazi oldingi davrda o'q tayyorlovchilar uchun xizmat qilgan bo'lsa, o'rganilayotgan davrda bu yerda chit mato sotuvchilarining joyi bo'lgan. Toqi Sarrafon ham pul ayriboshlovchilarning joyi sifati ishlagan va o'z nomini eski davrlardan saqlab qolgan. O'rganilayotgan davrda bu yerda ipakli ro'mollar sotilgan, rastalar esa bino ichiga sig'maganligidan arkka olib boruvchi ko'cha bo'ylab davom etgan. Birgina Toqi Allofi markazi o'z nomiga to'liq mos ishlatilgan, bu yerda un savdosi amalga oshirilgan [12]. Buxoro bozorlari tarkibiga shuningdek, maxsus savdo binolari – timlar ham kirgan. Timlar- to'rtburchak shaklidagi yog'och yoki tosh inshootlar bo'lib, ular mahalliy va xorijiy ishlab chiqarilgan buyumlar savdosi uchun xizmat qilgan. Ulardan eng mashhuri – Abdullaxon timi hisoblanib, u mustahkam toshdan qurilgan, yarim dumaloq gumbazli rotondalar qatoridan tashkil topgan [13]. Bu tim XVI asrda Abdullaxon

davrida qurilgan va hozirga qadar saqlanib qolgan. U katta, to'rtburchak shaklda yopiq, ko'p gumbazli bino bo'lib, devorlar bo'ylab tahminan 100 ta kichik yog'och do'konlar joylashgan. Abdullahon timida ipak, duxoba, kiyim-kechak kabi mahsulotlar bilan savdo qilingan [14]. Shaharda 9 ta tim mavjud bo'lib, ulardan 5 tasi toshdan qurilgan [15]. Bu timlarda esa, paxtadan ishlangan mahsulotlar, oyoq va bosh kiyimlar bilan liq to'la bo'lgan. Buxoro shahar savdo rastalari o'zining uzunligidan ko'ra, do'konlarning zich joylashuvi bilan ajralib turgan. Toqi Sarrafon savdo markazining ark tomonga ketadigan ko'chada 150 ta do'kon bo'lgan, u yerda qog'oz matolari (chitfurush) sotilgan. Shu hududdagi boshqa ko'chada 30 ta qog'oz do'koni mavjud bo'lib, ularning egasi asosan mahalliy yahudiylar bo'lgan. Undan keyin atlas rastasi mavjud bo'lib, u yerda ipak matolar – mahalliy va fabrika matolari sotilgan. Bu rastada tahminan 40 ta do'kon mavjud bo'lgan. Bundan tashqari bu yerda yana bir rasta bo'lib, u yerda 25 ta do'konda ipak-olacha sotilgan. Shuningdek, boshqa turdagi tovarlarga ixtisoslashgan ko'plab do'konlar ham mavjud edi: Attori rastalarida tahminiy 150 ta do'kon (ularning ko'pchiligi tabiblar bo'lib, u yerda o'z dorilarini tayyorlashgan), Farfor idishlari savdogarlari 60-70 do'konlardan iborat bo'lgan, choy rastasi esa 40-50 ta (shahar bo'ylab 100 ta) do'kon mavjud bo'lgan, shirinlik rastasi Toqi Telpak markazi yaqinida bo'lib, tahminiy 50 ta do'kon, arkning g'arbiy qismida joylashgan mis ishlovchilar rastasida 60 ta ustaxona-do'kon mavjud bo'lgan.

Har bir bozorda o'z boshlig'i bor, u amir oldida tartib va narxlar uchun javobgar bo'lgan.

Musulmonlardan zakot 1/40 qismi ya'ni 2,5% miqdorida, musulmon bo'lmaganlardan esa 1/20, ya'ni 5% miqdorida olingan. Zakot yig'imi ichki ham, tashqi savdoda ham bir hil qo'llanilgan. Buxoro shahri boshqa shaharlar bilan ham faol savdo aloqalarini olib borgan. Hirotdan mevalar, junli matolar keltirilgan. Marvdan esa qurollar olib kelingan. Buxoroda ipak savdosi ham ancha rivojlangan. P.I. Demizon ma'lumotlariga qaraganda, "Buxoro atrofi va Karmanada yetishtirilgan ipak eng yaxshi hisoblangan". Buxoroda ipak xom ashyosi, ya'ni pillasining bir pudi 13–14 tilla, ipakdan yigirilgan ipning bir pudi esa 30–32 tilla turgan. Ichki savdo muvaffaqiyatining birinchi sharti – avvalo bozorlarning o'zaro oson aloqa qilishidir. Chunki, bu nafaqat savdogarlarga ortiqcha tavarlarni bir birlari bilan almashish imkonini beradi, balki haridor uchun ham juda muhim bo'lgan qulayliklarni yaratadi. Aynan mana shu narsa, aloqa va yo'llarning qulayligi amirlik davrida butunlay e'tiborsiz qoldirilgan. Xanikovning

ta'kidlashicha, Buxoroda yo'llar yomon holatda bo'lgan. Garchi, Buxoro va Samarqand o'rtasidagi yo'l boshqalariga qaraganda yaxshiroq bo'lsada, baribir uni qulay deb atab bo'lmaydi. U Savdo yo'llarining bir necha noqulayliklarini sanab o'tgan:

Birinchiidan, yo'l ekin maydonlari orasidan o'tadigan joylarda nihoyatda tor bo'ladi;

Ikkinchiidan, ko'priklarning joylashuvi noo'rin bo'lib, ko'plarining holati ancha o'g'ir ahvolda, aravakashlar bunday ko'priklardan o'tish o'rniga ariq va kanallarning o'sha joyning o'zidan kechib o'tishni afzal ko'rgan;

Uchinchiidan, yo'llarni yaxshilash masalasida hukumat juda e'tiborsiz bo'lgan.

Masalan, Samarqand yo'lining ayrim joylarida, ayniqsa Qarshi yo'nalishida, yo'l butunlay gil tuproqlardan iborat bolib, kuz oxiri va bahorda shu qadar loyga aylanganki, nafaqat tuyalarning yurishi, balki otliq kishilarning o'tishi ham nihoyatda og'ir bo'lgan. Ichki savdo asosan oldindan belgilangan kunlarda o'tadigan yarmarkalarda amalga oshirilgan. Shaharlarda yarmarkalar haftada ikki marta, qishloqlarda esa haftasiga bir marta o'tkazilgan. Bozor kunlarida odamlar qatnashishi juda ko'p bo'lar edi, odatiy kunlarda esa, ko'chalar deyarli bo'sh bo'lar edi. Bu esa savdogarlarning daromadi past va iste'molchilarning talablari qanchalik kamligini ko'rsatib berar edi. XIX asr boshlarida Markaziy Osiyo shaharlari haqida muhim ma'lumot bergan Mir Izzat Ulla Buxoroda haftaning dushanba, seshanba, shanba kunlari ulgurji bozor va va shahar devori ortidagi Ho'ja Bahovuddin Naqshband mozori yaqinida chorshanba kuni ot bozori bo'lganligi haqida yozgan.

**Xulosa.** Maqola natijalariga ko'ra, Buxoro amirligi davrida Buxoro shahri ichki va tashqi savdo jarayonlarida muhim markaz sifatida faoliyat yuritgan. Shahar bozorlari, karvonsaroylar, tim va toqlar, chorsu va savdo rastalari savdo infratuzilmasining asosiy elementlarini tashkil etgan. Ichki savdo hunarmandchilik bilan uzviy bog'liq bo'lib, turli tovarlar bilan savdo qilish uchun maxsus markazlar, rastalar va timlar mavjud bo'lgan. Buxoro shahri geografik jihatdan tranzit savdo yo'llarining chorrahasida joylashgani sababli, u Markaziy Osiyo, Rossiya, Eron, Afg'oniston va Hindiston bilan iqtisodiy aloqalarni rivojlantirishda strategik rol o'ynagan. Savdo tizimi shariat asosida tartibga solingan bo'lib, zakot va soliqlarni yig'ish orqali iqtisodiy tartibni ta'minlagan. Shu bilan birga, shaharda mavjud bo'lgan qul savdosi ham savdo faoliyatining ajralmas qismi sifatida namoyon bo'lgan.

#### ADABIYOTLAR

1. Костенко Л. Центральная Азия: Водворение в ней русской гражданственности. – Санкт-Петербург. Издание А. О. Баунова, 1871. – С. 253.
2. Ханыков Н. В. Описание Бухарского ханства. Санкт-Петербург: Тип.Имп. Академии наук, 1843. – С. 161.
3. Агзамова Г. А. XVI-XIX асрнинг биринчи ярмида Ўзбекистон шаҳарлари ва шаҳарлар ҳаёти. Тарих.фан.док.дис. -Т.: 2000. -С. 179.
4. Сухарева О. А. К истории среднеазиатского города (БухараXVI – XX вв). – Москва: Издательство восточной литературы, 1962. – С. 42.
5. Шубинский П.П. Очерки Бухары. Истографический вестник, 1892. -Ч. XLIX. -С. 643.
6. Сухарева О. А. К истории среднеазиатского города (БухараXVI – XX вв). – Москва: Издательство восточной литературы, 1962. – С. 42.
7. Вамбери А. Путешествие по Средней Азии. – М. Восточная литература, 2003. – С. 266.
8. Ханыков Н. В. Описание Бухарского ханства. Санкт-Петербург: Тип.Имп. Академии наук, 1843. – С. 163.
9. Филипп Ефремов. Десятилетнее странствование. – М. 1950. – С. 26.
10. Шубинский П.П. Очерки Бухары. Истографический вестник, 1892. -Ч. XLIX. -С. 643.
11. Сухарева О. А. К истории среднеазиатского города (БухараXVI – XX вв). – Москва: Издательство восточной литературы, 1962. – С. 44.
12. Сухарева О. К истории среднеазиатского города (БухараXVI – XX вв).– Москва: Издательство восточной литературы, 1962. –С. 45.
13. Шубинский П.П. Очерки Бухары. Истографический вестник, 1892. -Ч. XLIX. -С. 643.
14. Южин Скайлер. Туркистон: Россия Туркистони, Кўкон, Бухоро ва Фулжага саёҳат қайдлари. Таржимон З. А. Саидбобоев. – Т.: Ўзбекистон, 2019. – С. 302.
15. Шубинский П.П. Очерки Бухары. Истографический вестник, 1892. -Ч. XLIX. -С. 643.